



Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

QUR'ONI KARIMNING TARJIMA QILINISHI YOKI QILINMASLIGIGA DOIR ILMIY BAHS VA MUNOZARALAR.

Shamsiddin Yodgorov

2- bosqich tayancha doktoranti,
Termiz davlat sharqshunoslik universiteti
Surxondaryo, O'zbekiston
Email: yadgarovshamsiddin@gmail.com

MAQOLA HA QIDA

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim, ma'noviy tarjima, tafsir, sharh, adekvatlik, bibleizmlar, tajsim, tashbih, antropomorfizm

Annotatsiya: Maqolada Qur'oni Karimning XVII – XIX asrlar oraliq‘ida «Biblical English», «Religious English» yoki «Post classical English» deya e'tirof etiluvchi ingliz tili diniy uslubiyati orqali tarjima qilingan tarjimalari ustida olib borilgan tahlillar asosida Qur'oni Karimning tarjima qilinish yoki qilinmasligiga oid olim va soha mutaxassislar orasidagi bahsu munozaralar ilmiy asosda yoritib berilgan. Qur'oni Karimni tarjima qilishda ingliz tilining o'rta asrlar davridagi tarixiy – arxaik shakli, hamda yunon, lotin va eski ibroniy tillaridan o'zlashgan diniy – liturgik leksikasi asosida vujudga kelgan diniy uslubi Bibliyaviy asosidan ketish va tarjimada ingliz tiliga qadimi yunon va eski ibroniy chadan o'zlashgan diniy leksemalar, bibleizmlardan foydalanish, Qur'oni Karim oyatlarining asl istilohiy mohiyatini tarjimalarda aniq ifodalab bera olmadidi. Natijada Qur'onning teologik sofligiga putur yetdi. Bu orada nomusulmonlar muallifligida nashrdan chiqarilgan tarjimalar Islom dinini qabul qilish ilinjida yurgan ko'plab inglizzabon insonlarda Islom diniga nisbatan fobiya shakkantirib qo'ya oldi. Buning natijasida, Islom olamida Qur'oni Karimning tarjima qilinishiga taqiq qo'yish masalasi ko'tarildi va bu masala bir vaqtning o'zida Islom ulamolari o'rtasida quyidagi baxs va munozaralarni ham avj oldirdi. Qur'oni Karimni ingliz tiliga tarjima qilishda, asosan ko'p hollarda Bibliyaviy asosdan ketish va tarjimada ingliz tiliga qadimi yunon va eski ibroniy chadan o'zlashgan diniy leksemalar, bibleizmlardan foydalanish, Qur'oni Karim oyatlarining asl istilohiy mohiyatini tarjimalarda aniq ifodalab bera olmadidi. Natijada Qur'onning teologik sofligiga putur

yetdi. Bu orada nomusulmonlar muallifligida nashrdan chiqarilgan noadekvat tarjimalar ko'plab inglizzabon insonlarda Islom diniga nisbatan fobiya shakllantirib qo'ya oldi. Buning natijasida, Islom olamida Qur'oni Karimning tarjima qilinishiga taqiq qo'yish masalasi ko'tarildi va bu masala bir vaqtning o'zida Islom ulamolari o'rtasida quyidagi baxs va munozaralarni ham avj oldirdi. Mazkur maqolada ayni shu masalalar batafsil yoritildi.

SCIENTIFIC CONTROVERSY AND DEBATE ON THE TRANSLATION OF THE QUR'AN OR NOT.

Shamsiddin Yodgorov

*2nd stage undergraduate doctoral student,
Termez State University
Surkhandarya, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Translation, interpretation, adequacy, Bibleisms, Islamic jurisprudence

Abstract: In the article, based on the analysis of the translations of the Holy Qur'an in the XVII-XIX centuries, which were translated through the religious methodology of the English language known as "Biblical English", "Religious English" or "Post classical English", the translation of the Holy Qur'an. The arguments and debates between scientists and industry experts about whether to do it or not to do it are explained on a scientific basis. In the translation of the Holy Quran, the religious style that arose on the basis of the historical-archaic form of the English language in the medieval period, as well as the religious-liturgical lexicon borrowed from the Greek, Latin and ancient Hebrew languages, the departure from the biblical basis and the religious style borrowed from the ancient Greek and ancient Hebrew in the translation into English. the use of lexemes, Bibleisms, could not clearly express the original idiomatic essence of the verses of the Holy Qur'an in the translations. As a result, the theological purity of the Qur'an was damaged. In the meantime, the translations published by non-Muslims have created a phobia of Islam in many English-speaking people who are trying to convert to Islam. As a result, the issue of banning the translation of the Holy Qur'an was raised in the Islamic world, and this issue at the same time provoked the following discussions and debates among Islamic scholars. When translating the Holy Qur'an into English, mainly in many cases, the departure from the biblical basis and the use of religious lexemes and biblicalisms, which were adopted into English from ancient Greek and old Hebrew, could not clearly express the original lexical essence of the verses of the Holy Qur'an in the translations. As a result, the theological purity of the Qur'an was damaged. In the meantime, inadequate translations published by non-Muslims have created a phobia of Islam in

many English-speaking people. As a result of this, the issue of banning the translation of the Holy Qur'an was raised in the Islamic world, and this issue at the same time provoked the following debates and discussions among Islamic scholars. In this article, the same issues were covered in detail.

НАУЧНЫЕ ПОЛИМISЫ И ДИСКУСЫ О ПЕРЕВОДЕ КОРАНА ИЛИ НЕТ.

Шамсиддин Ёдгоров

докторант 2 ступени бакалавриата,

Терmezский государственный университет

Сурхандарьинская область, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Перевод, интерпретация, адекватность, библейство, исламская юриспруденция

Аннотация: В статье на основе анализа переводов Священного Корана в XVII-XIX веках, которые были переведены посредством религиозной методологии английского языка, известной как «библейский английский», «религиозный английский» или «постклассический Английский», перевод Священного Корана Споры и споры между учеными и отраслевыми экспертами о том, делать это или нет, объясняются на научной основе. В переводе Священного Корана использован религиозный стиль, возникший на основе историко-архаической формы английского языка в средневековый период, а также религиозно-богослужебная лексика, заимствованная из греческого, латинского и древнееврейского языков. Отход от библейской основы и заимствованный из древнегреческого и древнееврейского религиозный стиль при переводе на английский язык употребление лексем, библеизмов, не могло ясно выразить изначальную идиоматическую сущность стихов Священного Корана в переводы. В результате была нарушена богословская чистота Корана. Тем временем переводы, опубликованные немусульманами, вызвали фобию ислама у многих англоязычных людей, пытающихся принять ислам. В результате в исламском мире был поднят вопрос о запрете перевода Священного Корана, и этот вопрос одновременно вызвал следующие дискуссии и споры среди исламских ученых. При переводе Священного Корана на английский язык, главным образом во многих случаях отход от библейской основы и употребление религиозных лексем и библейализмов, которые были заимствованы в английский язык из древнегреческого и древнееврейского, не могли четко выразить изначальную лексическую сущность стихов Священного Корана в переводах. В результате была нарушена богословская чистота Корана. Между тем, неадекватные переводы,

опубликованные немусульманами, вызвали фобию ислама у многих англоязычных людей. В результате этого в исламском мире был поднят вопрос о запрете перевода Священного Корана, и этот вопрос одновременно спровоцировал следующие споры и дискуссии среди исламских ученых. В этой статье эти же вопросы были подробно освещены.

KIRISH

Qur’oni Karim – Islom dinining birlamchi manbasi bo‘lgan ushbu muborak Kitob mana 14 asrdan oshiq vaqtidan buyon, o‘zining sintaktik jihatdan o‘ta mukammal matniy tarkibi, iste’mol nuqtai nazaridan eskirmaydigan, mohiyatan boy semantikasi, oson tushuniladigan adabiy talqini, go‘zal badiiy ifoda uslubi va deyarli ko‘pchilik tillarda mavjud bo‘lmagan o‘zgarmas grammatik qurilishi bilan dunyo ilm – fan jamoatchiligining e’tiborini tortib kelmoqda. Ammo, har davrda bo‘lgani kabi, ushbu Kitobning ilmiy haqiqatlarini zamonaviy ilm – fan tarmoqlari doirasida tadqiq qilish istagida bo‘lgan dunyo olimlarining hammasi ham Qur’on tili bo‘lgan fus’hani bilavermaydi. Shu sababli ham, ko‘pincha uning bugungi kunda, dunyo miqyosida xalqaro ilmiy tilga aylanib ulgurgan ingliz tilidagi ma’noviy tarjimalariga murojaat qilishadi. Ammo, tarjima tarjimonning ilmiy ijod mahsuli ekanligi sababli, Qur’oni Karim tarjimalarining hammasini ham asliyat matniga muqobil deb bo‘lmaydi. Qur’oni karim til uslubiyatida zamonaviy tillarda uchramaydigan, ikkinchi bir tilga bir so‘z yoxud leskik birikma bilan ifodalash imkonsiz bo‘lgan diniy xos birliklar va istilohiy leksemalarning mavjudligi va ularni tarjima jarayonida muammo sifatida yuzaga chiquvchi etnosemantik majoziy o‘ziga xoslik, bu kabi masalalarga dinshunoslik fanlari bilan birgalikda tilshunoslik rakursidan qarashni taqozo qilmoqda.

TADQIQOTNING USULLARI

Shu o’rinda Qur’oni Karim tarjimalariga nisbatan nega ma’noviy tarjima deyilishiga hamda, Qur’oni Karimning tarjima qilinishi yoki qilinmasligiga doir quyidagi ikki xildagi qarashda bo‘lgan soha mutaxassislari o’rtasida uzoq yillarda buyon davom etib kelayotgan ilmiy bahs va munozaralarga batatsil to’xtalishga qaror qildik:

1. Shar’iy – fiqhiy qarash;
2. Qur’on ma’nolarini o’rganishga qaratilgan badiiy – lingvistik qarash;

NATIJALAR

Islom ulamolariga ko’ra, tarjima ishi tarjimonning g’oyaviy – ijodiy mahsuli bo‘lganligi, Qur’oni Karim ma’nolarini tarjima qilishda tarjimon foydalanadigan so‘zlar bashariy lafz ekanligi va bu kabi ijtimoiy so‘zlar Alloh taoloning Qur’oni Karim oyatlaridan ko‘zlagan ilohiy murodini to‘liq ifodalab bera olmasligi sababli Qur’oni Karimning turli tillardagi tarjimalari, uning arab tilida nozil qilingan asliy matni bilan teng shar’iy hukmda bo‘la olmaydi. Islom fiqhshunoslaridan Zachariah Matthewga ko’ra, quyidagi omillar sabab Qur’oni Karim tarjima qilinishiga ruxsat berilmaydi:

1. Possibility of anthropomorphic interpretation (Tarjimonlarning Allohga jismiy va shakliy sifat berish ehtimoli)

Qur’oni Karimda insoniy aql va dunyoqarash uni tasavvur qilishga ojizlik qiladigan shunaqangi ilohiy obrazlilik mayjudki, insoniy idrokdan (human cognition) hosil bo’ladigan so‘zlar ularni tarjima jarayonida qamrab ololmaydi, oqibatda Qur’oni Karim oyatlardan anglashilinishi lozim bo’lgan ilohiy asliyat, (divine essence) tarjimalarga ko‘chmay qoladi yoki yanglish bir mohiyatga aylanib ketadi. Buning natijasida esa, Qur’oni Karimning teologik sofligiga putur yetadi. Zachariah Matthewning qayd etishicha, tarjimonning Qur’oni Karimga ko’ra yagona, o’xshashi va tengi yo’q bo’lgan Iloh (Alloh) tushunchasiga tashbih (Allohn maxluqot yoki mavjudotga o’xshatib talqin qilish) va tajsim (Allohn jismiy shamoyilda tasvirlashga urinish) kabi antropomorfistik rakursdan qarash asliy matnda mavjud bo’lmagan antropomorfistik tasvirning tarjimada paydo bo’lib qolishiga sabab bo’lar ekan. Psixolingvistik Salman Akhtar o’zining “The Quran and the secular mind: A philosophy of Islam” nomli kitobida Qur’on Karim ma’nolarini tarjima qilish jarayonida yuzaga antropomorfistik talqiniy muammolardan birini quyidagicha misol sifatida keltirgan. Unga ko’ra Qur’oni Karim ma’nolarini tarjima qilish ishiga kirishgan inson Qur’onda Allohning “hamma narsani ko‘rib turishi” bayon qilingan Baqara 2:96,110,233,237; Oli Imron 3:15,20,156,163; Moida 5:71; Anfol 8:39,72; Ahzob 33:9; G’ofur 40:44; Hujurot 49:18; Hadid 57:4; Mumtahanah 60:3; Tag’obun 64:2; va Alaq 96:14; kabi, shuningdek “hamma narsani eshitib turishi” haqida aytilgan Baqara 2:181,224,227,244,256; Niso 4:58,134,148; Anfol 8:17, 42, 53; Tavba 9:98,103; Hajj 22:61,75; Nur 24:21,60; Luqmon 31:28; Hujurot 49:1; Mujodala 58:1; singari oyatlarga duch kelganida, oyatda kelgan “ko‘rish” yoki “eshitish” so‘zlari uning ongida avtomatik ravishda insonning ko’z orqali ko‘rishi yoki quloq orqali eshitishi kabi bashariy – fiziologik bir jarayon tasavvurini paydo qiladi, ya’ni tarjimonning tasavvurida Iloh insonga o’xshash ikki ko‘zi bor, ikki qulog’i bor bir borliq o’laroq gavdalananadi.

Buning oqibatida, tarjimaviy muqobillar ham ko‘p hollarda ayni shu idrokiy tasvirga mos bir holatda “God sees” yoki “God hears” shaklida beriladi. Garchi, Qur’onda Alloh dunyodagi hech bir mavjudotga o’xshamasligi, uning butun olamlar ichra o’xshashi, tengi yo’qligi haqida ochiq xabar berilgan qator oyatlar (keyinroq ularning har biriga batafsil to’xtalamiz) mavjud bo’lsa – da, aksariyat holatlarda tarjimon ushbu oyatlarning mavjudligini hisobga olmasdan, tarjimada Allohning Qur’oni Karimga ko’ra qanday bo’lishi ma’lum qilinmagan “ko‘rish” yoki “eshitish” xislatini, mohiyatan inson fiziologiyasiga o’xhatilgan holatda tasvirlab beradi. Natijada, tarjimada asliyat matniga ko’ra butun olamdagи hech bir mavjudotga, xossatan insonga o’xshamaydigan, tengi va o’xshashi yo’q bo’lgan “Iloh” konseptiga zid bo’lgan antropomorfistik (insonga o’xshash qilib tasvirlanuvchi) bir ma’bud tasviri paydo bo’ladi. Bu esa o’z navbatida juda qo‘pol xatolik va ayni paytda Islom dinining tamal aqidiga zid bo’lgan noto‘g’ri tarjimadir. Ko’rib turganingizdek, antropomorfistik yondashuv asosida talqin qilinayotgan Qur’oni Karim ma’noviy tarjimalaridagi teokonseptual buzilishlar sabab, Islom fiqhida Qur’oni Karimning tarjima qilinishiga ruxsat berilmaydi.

Islom falsafashunosi Nurhanisah Seninning qayd etishicha Qur’oni Karimga ko’ra Iloh konseptini antropomorfistik talqin qiluvchilarga qarshi birinchilardan bo’lib ilmiy mujodala qilgan Islom faylasufi, Imom Abu Homid G’azzoliy o’z ilmiy izlanishlarida nafaqat Qur’oni Karim, balki ungacha bo’lgan ilohiy Kitoblar jumladan, Tavrot, Zabur va Injildagi monoteistik Iloh konseptining antropomorfistik talqinga uchrashiga, yunon va rim diniy – mifologiyasining g’oyaviy ta’siri benihoyat kuchli bo’lganligi haqida yozib qoldirgan. Bir so’z bilan aytganda, Abu Homid G’azzoliyning mazkur fikrlaridan, ingliz tili teostistikasida simulizm (conceptualizing of God like a living thing) va corporealizm (belief that God has a physical

body) deya tilga olinadigan, tashbihiy va tajsimiy talqin orqali Qur’oni Karimdan oldingi ilohiy Kitoblardagi deistik mohiyatni materialistik talqin qilganlar ham aynan ilohiy din va bashariy mifologiyani bir – biridan ajrata olmaydigan toifalar ekanligi ma’lum bo’ladi. Umuman olganda, Qur’oni Karimdagagi Ilah konseptini tashbih va tajsim qiluvchilardan bo’lmish «mushabbiha» (simulist) va «mujassima» (corporeal) toifalariga keskin raddiyalarni berib kelayotgan Islom ulamolari ko’plab topiladi. Ahli sunnat val jamoat aqoididagi sunniy mufassir ulamolar, bu toifalarning antropomorfistik qarashlarini Qur’oni Karimning quyidagi oyatlariga ko‘ra botil va noto‘g‘ri ekanligi bayon qilishgan: Shu’uro surasi 11 – oyat ﴿لَيْسَ كَمُتَّهِ شَيْءٌ﴾biror bir narsa U zotga (Allohga) o‘xhash emasdir.

فَلَا تَضْرِبُوا بِاللهِ أَلْمَدَّا – oyat Nahl surasi 74 – oyat

… Bas, Allohning o‘xhashini (tengini) qidirmanglar!

Yuqoridagi kabi toifalarga mazhabboshimiz Imomi A’zam Abu Hanifa ham o‘zining Fiqhul Akbar asarida quyidagicha javob bergan: “Allohning birdir. Ammo, Uning birligi son jihatidan emas, sherigi yo‘qligi, tug‘maganligi, tug‘ilmaganligi, tengi yo‘qligi, U O‘zi yaratgan narsalardan birortasiga o‘xshamasligi, Unga ham biror narsa o‘xhash emasligi jihatidandir”. U O‘zining zotiy va fe‘liy sifatlari bilan azaldan bor bo‘lgan va abadiy bor bo‘ladi.

Ibn Qayyim ham bu toifalarga nisbatan she’riy tarzda raddiya bayon qilgan:

O‘xhatmaymiz sifatlarin vasfimizga
Sig‘ingaydir mushabbihlar asli butga.
Kim o‘xshatsa Xoliqni o‘z maxluqiga
Darz ketibdi uning ixlos, iymoniga

Ibn Qayyimga ko‘ra “Kim Allohning sifatlarini bandalarining sifatlariga o‘xshatsa, Masih ibn Maryamga ibodat qiluvchi nasorolarga o‘xshab qoladi.” Endi esa Islom fighida Qur’oni Karimning tarjima qilinishiga nisbatan qo‘yilgan taqiqning sabablaridan yana bir haqida Zachariah Matthew tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarash muhokamasiga to’xtalamiz.

2) Pre-Quranic Canonical interpretation (Biblical interpretation of Quran)

Zachariah Matthewga ko‘ra, Qur’oni Karimning tarjima qilinishiga shar’iy nuqtai nazardan taqiq qo‘yuvchi navbatdagi omil, uning undan oldin nozil qilingan, ammo keyichalik inson omili aralashuvi sabab matnan va aqidaviy jihatdan buzilgan va tahrif etilgan Tavrot, Zabur va Injillarning Eski va Yangi Ahd shaklida bitta to’plamga birlashitirilgan zamonaviy Bibliya matnlariga ma’noviy xos shaklda tarjima qilishga urinilishdir. Bir so’z bilan aytganda, mazkur usul orqali bugun g’arb dunyosi xristian missionerlari Qur’oni Karimni zamonaviy Bibliya matnlari orqali sharhlashga, yanayam aniqrog‘i Qur’oniy xos istilohlarni “bibliezmlar” (Bibliya xos atamalar) orqali izohlashga zo‘r berib harakat qilishmoqda. Alovida qayd etishimiz lozimki, tadqiqotimiz obyekti sifatida tanlab olganimiz Alexander Rossning “Alcoran of Mahomet”, Jorj Seylning “Alcoran of Mohammad”, John Rodwellning “The Koran” kabi tarjimalari zamonaviy Bibliya matnlariga xos bir shaklda o‘girilgan, bibleizmik tarjimalardir.

Qur’onning tub mohiyatini o‘rganishga qaratilgan ilmiy va badiiy – lingvistik qarash. Ahmad Horryga ko‘ra, yuqoridagi muhokama qilingan shu va shu kabi boshqa omillar sabab, ba’zi Islom ulamolari Qur’oni Karim tarjima qilinmasligiga qat’iy hamfikr bo’lishsa – da, boshqa bir toifa ulamolar, Qur’oni Karimni ma’nolarini xorijiy tillarga, tarjimalarni asliy Qur’oni Karimga fiqhiy va shar’iy nuqtai nazardan teng deb bilmasdan, ulardan shar’iy fatvo yoki hukm olish maqsadida emas, balki arab bo’lmagan xalqlarga ularning o‘z ona tillarida tushuntirib berish niyatida tarjima qilib berishda biror shar’iy qarshilik yo‘qligiga ittifoq qilishgan. Ustiga – ustak, lingvistik nuqtai nazaridan olib qaraganda ham, Qur’oni Karim ma’nolarini boshqa tillarda

sharhlab berish uni “ma’noviy tarjima” qilish ekanligi quyida ilova qilingan izohlarda ham ochiq – oydin bayon qilingan:

1) Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf: “Qur’oni Karim ma’nolarini tarjima qilib berish, uni tafsir qilib berish deganidir”

2) Madina instituti professori, Afnan Fatani: “Translation of the Qur‘an is to interpret the essence of its meaning into the languages other than Arabic”.

3) McGill universiteti professori, Gillian Leyn Mersier: “Translation of the Quran is to reproduce its semantic meaning into the target language”.

4) Qur’oni Karimning rus tilidagi ma’noviy tarjimasi muallifi, rus tarjimoni, Valeria Poroxova: «Переводит Священный Коран означает как яснее истолковывают смысл этого аятов».

5) Rus tarjimoni, Ignatiy Yulianovich Krachkovskiy: «Переводит Корана это – сносно представляет это когнитивно-смысловое значение».

Ko’rib turganimizdek, yuqoridagi izoh mualliflarining barchasi Qur’oni Karimni tarjima qilish deganda uning istilohlaridan ko’zlangan ma’noni yoritib berish ekanligini ilgari surishgan. Birgina, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Qur’oni Karim tarjima turlarini 1) Harfiy (lug’aviy yoki so’zma – so’z) va 2) Tafsiriy (ma’noviy yoki semantik) kabi ikki turga bo’lib tasnif qilganlar.

Harfiy tarjima. Shayxga ko’ra, harfiy tarjima matnni unda ishtirok etgan so’zlarning lug’atda berilgan ma’nolari asosida ikkinchi bir tilga so’zma – so’z holatda o’girish bo’lib, bunda tarjimon asosiy e’tiborini asliyat tilidagi leksik birliklarning lug’atda ifodalangan ma’nolariga (dictionary meaning) qaratadi va matndagi so’zlardan tarkib topgan sintaktik butunlik ifodalashi mumkin bo’lgan kontekstual ma’noga (contextual meaning) ahamiyat bermaydi. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu tarjima turining yana bir boshqacha nomi كلمة بكلمة (kalimatan bikalima), ya’ni so’zma – so’z tarjima bo’lib, unda yuqorida aytigelidek, oyat matni takibidagi har bir so’zga uning lug’atdagi muqobili qo’yib chiqiladi, oyatdagi grammatik tartib o’zgartirilmaydi. Qur’oni Karimning Al-Isro surasidagi 29 – oyatning harfiy tarjimasi misolida bunga guvoh bo’lishimiz mumkin:

وَلَا تَجْعَلْ يَدَكَ مَغْلُولَةً إِلَى عَنْقٍ وَلَا تَبْسُطْهَا كُلَّ الْبَسْطِ فَتَقْعُدْ مُلْوِمًا مَحْسُورًا ۲۹

Agar ushbu oyat harfiy, ya’ni so’zma – so’z tarjima qilinsa, undan quyidagicha ma’no chiqadi: “Qo’lingni bo’yningga o’rab bog’lama, va uni uzun qilaman deb judayam cho’zib yuborma” degan noaniq va o’ta mavhum ma’no kelib chiqadi. Ko’rib turganingizdek, oyat matnnini so’zma – so’z, lug’atdagi ma’no muqobilida ikkinchi bit tilga o’girish asliy matndan kelib chiqishi lozim bo’lgan mohiyatning tarjimada ko’chmay qolishiga sabab bo’ladi. Ma’lumotlarga qaraganda, vatandoshimiz bo’lgan Mahmud Taroziy (Oltinxonto’ra) tomonidan o’girilgan tarjima ayni shu harfiy usulda bajarilgan. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning fikricha ulamolar Qur’oni Karimning tarjima qilinishi yoki qilinmasligi haqida judayam ko’p bora bahs – u munozaraga borishgan bo’lib, ulardan ba’zilari Qur’oni Karimni tarjima qilish mumkin emasligini, boshqalari esa Qur’oni Karimni arab bo’lmagan, ajamiy xalqlarga yetkazish uchun tarjima qilish vojib ekanligini qayd etishgan bo’lsa – da, ularning hammalari, bir ovozdan Qur’oni Karimni harfiy tarjima qilish mutlaqo joiz emaligiga ittifoq qilishgan.

Tafsiriy tarjima. Bugungi kun iste’molida, bir so’z bilan «tafsir» deya murojaat qilinadigan mazkur tarjima turiga shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq o’zining «Tafsiri Hilol» asarida Qur’oni Karim oyatlarini ularning diniy – istilohiy mohiyatidan kelib chiqqan

holda ikkinchi bir tilga sharhiy bayon qilib berish deya izoh bergen. Shofeiy mazhabining mufassir ulamolaridan bo'lgan Imom Abu Abdulloh Zarkashiy tafsirsga Qur'oni Karimdan ko'zlangan asliy mohiyatni, mavjud usullarga muvofiq arab tilida yoki boshqa xorijiy tilda bayon qilib berish deya ta'rif berganligi aytildi. Shuningdek, tafsirshunos olimlardan Muhammad Zahabi Said Husayin o'zining mashhur «Tafsir va Mufassirlar» nomli asarida tafsirning istilohda Qur'oni Karim oyatlarini usuliy qoidalarga ko'ra sharxlab berish orqali undan ko'zlangan asl muddaoni ochiqlash, tushuntirish va izohlab berish ekanligini qayd etgan.

MUHOKAMA

Bundan tashqari Islom olamida “Tafsirul Jalalayn” nomi bilan mashhur bo'lgan tafsir muallifi, misrlik alloma Abdurahmon ibn Abu Bakr Jaloliddin Suyutiy tafsirga: «Eng so'nggi vahiy bo'lgan Qur'oni Karimning nuzulotidan ko'zlangan maqsadni chuqur tushunish va uni boshqalarga aslidagiday bayon qilib, tushuntirib berishdir» – deya ta'rif berganligi manbalarda keladi. Shu o'rinda Qur'oni Karimni kimlar tafsir (tafsiriylar tarjima) qilishga haqli degan asosli bir savol tug'iladi. Jumhur ulamolar ittifoqiga ko'ra, Qur'oni Karim arab tilini biladigan har qanday inson ham o'z aqliga ko'ra tafsir (tafsiriylar tarjima) qiladigani bir Kitob emas.

Zero bir tilni muloqot qilar darajada bilish bilan, tilning matniy qurilishi, undagi leksik – semantik xususiyatlar, uning tarkibidagi sheva va lahjalarning pragmatic implikatsion o'ziga xosliklari va ifoda uslubiyatiga oid masalalarda yetarli darajada nazariy bilimga ega bo'lish orasida katta farq mavjud. Shu sababli ham, aksariyat nomusulmonlarning Qur'oni Karim ma'nolarini tarjima qilishda, undagi istilohlarga Qur'on tili bo'lgan fus'haning etnosemantik mohiyatiga ko'ra emas, balki bugungi kun arablari orasida so'zlashuv va ijtimoiy aloqa tili sifatida paydo bo'lgan zamonaviy arab tilining amaldagi iste'moliy mohiyatiga ko'ra ma'no bermoqchi bo'layotganliklari, zaruriy tarjima usullaridan foydalanmasliklari, diniy istilohlarning ma'nolarini to'liq ochiqlashda murojaat qilish lozim bo'ladigan Qur'on ilmlari (Ulumul Qur'on), Hadis ilmlari (Mustalahul Hadis), fiqh va aqoidga oid lug'atlar (Mufradotu fiqhiyya), Islom tarixi va siyrat ilmiga oid bo'lgan eng ishonchli manbalarga (Ilmus Siyar) umuman murojaat qilmasliklari va boshqa bir qator sabablar, aksar ma'noviy tarjimalarning asliy matnga adekvat o'girilganligini shubha ostiga oladi.

Ulamolarning ilmiy va fikriy ittifoqiga ko'ra, agar bir inson Qur'oni Karimni tafsir (tafsiriylar tarjima) qilmoqchi bo'lsa – yu, oyatlarning nuzulot sabablarini bilmasdan, mufassir va muhaddis ulamolarning bu boradagi ilmiy qarashlaridan xabardor bo'lmasdan turib tafsirsga qo'l ursa, u Qur'oni Karim polisemiyasini (ko'p ma'noliligini) hisobga olmasdan, ma'lum bir vaziyat uchun tushgan oyatda ishtirok etgan so'zlarni faqatgina lug'aviy ma'nosiga tayangan holatda, yanglish talqin qilish ehtimoli ko'p bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, bunday tarjima Tafsir ilmida (Tafsiriylar tarjima nazariyasida) Qur'oni Karimning ra'yga (shaxiy fikriy qarashga) ko'ra tarjima qilinishi hisblanadi. Bu kabi tafsiriylar tarjimalar esa Qur'oni Karimning nomusulmonlar tomonidan nafaqat o'ta yanglish qabul qilinishiga, balki endigina Islom dinini qabul qilgan inglizzabon musulmonlarning ham Qur'oni Karimni mazhabiy va firqaviy tamoyil asosida farqli tushunilishiga, ulardan xilma – xil hukm va xulosalar olinishiga sabab bo'ladi. Tadqiqotimiz davomida olib borgan tahlillarimiz, Qur'oni Karimning ingliz tilidagi ma'noviy tarjimalari turli mazhab, aqidaviy firqa va diniy jamoatning e'tiqodiy qarashlariga xoslanib o'girilganligini ko'rsatmoqda va biz ularni mazhabiy, aqidaviy va firqaviy xususiyatlaridan kelib chiqib, 5 guruhga bo'lib tasnifladik.

Qur’oni Karim ma’nolarining mazhabiy va aqidaviy jihatdan turlicha talqin qilinganligiga Islom tarixida ham misollar talaygina. Manbalarga ko‘ra, Ali roziallohu anhudan boshqa sahobalardan rivoyat qilingan hadislar va Qur’oni Karimning ulardan kelgan usuliy tafsirlarini tan olmasdan tarkiban o‘n ikkilar, ismoiliylar, zaydiylar va ibodiylar singari firqalarga bo‘linib ketgan shia mazhabining paydo bo‘lishiga ham Qur’oni Karimni tafsir (tafsiri tarjima) qiluvchilar ma’lum bir vaziyat uchun tushgan oyat mazmunini boshqa bir vaziyatga xoslab ma’no bergenliklari sabab bo‘lgan ekan. Shuning uchun ham Muhammad s.a.v oyat matnini zohiriya ya’ni yuzaki tarzda, botiniy mohiyatini bilmasdan turib, faqatgina shaxsiy qarash, ya’ni ra’yga ko‘ra tafsir (tafsiri tarjima) qilishlarini man etib, bo‘lajak ummat olimlarini qattiq ogohlantirgan ekanlar. Bu ogohlantirish Imom Termiziyning “Sunani Termizi” asarida kelgan 2951 – hadisda quyidagicha rivoyat qilinadi:

سنن الترمذى | أبواب تفسير القرآن بباب ما جاء في الذي يفسر القرآن برأيه
عن ابن عباس، عن النبي صلى الله عليه وسلم، قال: «اتقوا الحديث عنى إلا ما علمتم، فمن كتب على
متعبداً فليتبوأ مقعده من النار، ومن قال في القرآن برأيه فليتبوأ مقعده من النار»: «هذا حديث حسن»

«O‘zingiz bilmagan hadisni mendan (ya’ni Payg‘ambaringizdan) deyishga qo‘rqing. Kimki, sha’nimga qasddan yolg‘on hadis aytsa, uning joyi do‘zaxdadir, va yana kimki Qur’onni o‘z aqliga ko‘ra tafsir qilsa, uning ham joyi do‘zaxdadir».

Ammo, Qur’oni Karimni shaxsiy ra’yga ko‘ra tafsir qilishdagi tanqidiy qarashlar Qur’on tafsiri uchun talab qilinadigan barcha ilmlarda mohir bo‘lgan mazhabboshi imomlarimizning ilmiylik asosiga qurilgan «ijtihodiy ra’y»larini inkor qilmaydi. Zero, ularning ijtihodiy ra’ylari tafsiri tarjima uchun talab qilinadigan barcha ilmiy mezonlardan foydalanilgan holda olingan fiqhiy dalillardan iboratdir, ya’ni ularning ra’ylari aksariyat holatlarda tafsiri tarjimaning Qur’oni Karimni uning o’zi va sahif nabaviy hadislar bilan, Qur’oni Karimni sahobalar, va tobeinlar ijтиҳоди orqali qilinadigan usullariga tayandi. Tadqiqotimiz davomida olib borgan tahlillarimizda, ushbu usullar orasidan eng ko‘p murojaat qilganmiz Qur’oni Karimni uning o’zi bilan tafsir qilish usuliga batafsil to’xtalamiz.

Qur’oni Karim o‘z oyatlari tarkibida kelgan so‘zlarni, davomiy ketma – ketlikda yoki bir oyatda kelgan so‘zning ma’nosini boshqa bir oyat orqali izohlaydigan go‘zal bir tarjima uslubiga ega bo‘lgan ilohiy vahiyidir. Muhammad s.a.v davrlaridan beri mavjud bo’lib kelgan bu usul ishtirokida keyinchalik Qur’on ilmlari tarkibida «Qur’oni Karimni uning o’zi bilan tafsir qilish» nomli fundamental bir tafsir usuli paydo bo‘ldi. Mazkur usulga Qur’oni Karimdan judayam ko‘plab misollar keltirish mumkin. Misol uchun Qur’oni Karimning Baqara 2:03 oyatini olaylik.

٢- ذلك الكتاب لا زين فيه هدى للمؤمنين

Bu kitobda shak-shubha yo‘q, u taqvodorlarga hidoyatdir.

Oyatga e’tibor beradigan bo‘lsak, unda Qur’on ular uchun hidoyat bo‘ladigan insonlar toifasi (muttaqiyn) insonlar haqida so‘z bormoqda. Ushbu so‘zga nisbatan Qur’on ulamolari, tarjimon va tilshunoslar tomonidan turli ma’nolar berilgan. Xususan, bu so‘zni ustozlarimiz shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf va shayx Abdulaziz Mansurlar «taqvodorlar» deya, Mavlaviy Hindistoniy «Allohdan qo‘rqadiganlar» shaklida, Shayx Alouddin Mansur esa «taqvoli kishilar» deb tarjima qilishgan. Ushbu so‘zning aksariyat ingliz va rus tillaridagi muqobilillari ham «Xudodan qo‘rqadigan» degan ma’noda “God – fearing”/ “Pious” shaklida o‘girilgan. Tabiiyki, o‘zbek tiliga arab tilidan transliteratsion uslubda o‘zlashtirilgan «taqvodorlar» yoki «taqvo ahli» so‘zları kimga ishora qilayotganligini arab tilini bilmaydigan va Qur’oni Karim bilan ilk bor tanishayotgan insonlar bilishmaydi va o‘z o’mida ularga bu

so'zlarning ma'noviy mohiyatini tushuntirish uchun albattaki qo'shimcha sharhlarga ehtiyoj seziladi. Aslan olganda, Qur'oni Karimning o'zida مُتَّقِينَ (muttaqiyn) insonlarning aynan kimlar ekanligi ta'riflanadi. Ushbu sharhlarni, shunchaki, ushbu oyatdan keyin kelayotgan quyidagi 3, 4 va 5 – oyatlarda uchratish mumkin.

الَّذِينَ يُؤْمِنُونَ بِالْغَيْبِ وَيَقِيمُونَ الصَّلَاةَ وَمَمَّا رَزَقْنَاهُمْ يُنفِقُونَ ۚ ۳ وَالَّذِينَ يُؤْمِنُونَ بِمَا أُنْزَلَ إِلَيْكَ وَمَا
أُنْزَلَ مِنْ قَبْلِكَ وَبِالْآخِرَةِ هُمْ يُوْقِنُونَ ۴ أُولَئِكَ عَلَىٰ هُدًىٰ مِّنْ رَبِّهِمْ ۵ وَأُولَئِكَ هُمُ الْمُفْلِحُونَ ۶

3. Ular g'aybga imyon keltirurlar, namozni to'kis o'qirlar va Biz ularga bergan rizqdan nafaqa qilurlar.

4. Va ular senga va sendan oldin nozil qilingan narsaga imyon keltirarlar va oxiratga aniq ishonarlar.

5. Ana o'shalar, Robbilaridan bo'lgan hidoyatdadirlar va ana o'shalar, o'shalargina najot topguvchilardir.

Ko'rib turganingizdek, oyatlarda مُتَّقِينَ (muttaqiyn) toifadagi insonlar g'aybga imyon keltiruvchi, namozni to'kis ado qiluvchi, Alloh taolo tomonidan ularga berilgan rizq – u nasibalaridan infoq ehson qiluvchi, Muhammad s.a.vga nozil qilingan Qur'oni Karimga, Muhammad s.a.v.dan oldingi payg'ambarlarga nozil qilingan ilohiy kitoblarga va Oxirat kunining voqe' bo'lishihga imyon keltiruvchi insonlar ekanliklari ta'riflanmoqda.

XULOSA

Xulosa o'rnida, Qur'oni Karimni ma'nolarini ham tarjima qilish imkonsiz bo'lgan yana bir holatga guvoh bo'lib turibmiz, ya'ni g'aybga imyon keltiruvchi, namozni to'kis ado qiluvchi, Alloh taolo in'om etgan rizq – u nasibalaridan ulashuvchilar, Muhammad s.a.vga nozil qilingan Qur'onga va u zotdan oldingi payg'ambarlarga nozil bo'lgan Ilohiy kitoblarga va Oxirat kuniga imyon keltiruvchi insonlar degan ma'no anglatayotgan murakkab semantik tuzilma Qur'onda birgina مُتَّقِينَ (muttaqiyn) so'zi orqali ifodalanmoqda. O'z navbatida, qaysi tilda, yuqoridagi ma'nolarni umumsemantik jihatdan o'zida yaxlitlab, ularni mohiyatan bitta so'z bilan ifodalay oladigan leksik muqobil mavjud? – degan mazmundagi savol tug'iladi. Tahlillarimizga tayanib ayta olamizki, birorta tilda mavjud emas. Shuning uchun ham ham aksariyat Qur'on istilohlari tarjima tiliga shartli ravishda, to'g'ridan – to'g'ri transliteratsiya qilinadi. Ammo, asliyat tilidagi so'zlarni sharh va izohlarsiz, tarjima tiliga faqatgina transliteratsion uslubdan foydalangan holatda shunchaki ko'chirib o'tkazish har doim ham ko'zlangan natijani beravermaydi, sababi transliteratsion uslubda tarjima tiliga o'zlashtirilgan asliyat tilidagi so'zlarning nafaqat o'zi, balki mazmun – mohiyati ham tarjima tilida konsept sifatida mavjud bo'lmasligi mumkin.

Bu esa o'z navbatida bu kabi so'zlarning tarjima tilida mavhum bir ma'no ifodalashiga sabab bo'ladi. Misol uchun, Qur'oni Karimdag'i qator istilohiy – leksemalar, xususan "dunyo", "olam", "qiyomat", "mahshar", "jannah", "jahannam" va boshqa ko'plab shu kabi so'zlar shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alsaleh Brakhw & Shaik Ismail, S. F. (2014). The Importation of the Holy Quran into English: Governing Factors in the Translating Process. *Arab World English Journal*.
2. Khosravi, H., & Pourmohammadi, M. (2016). Influence of Translator's Religious Ideology on Translation: A Case Study of English Translations of the Nobel Quran. *International Journal of English Language & Translation Studies*, 4(4), 151-163
3. Bono, J. J. (1995). The word of God and the languages of man: interpreting nature in early modern science and medicine (Vol. 1). Univ of Wisconsin Press.
4. Clark, M. (1978). The Word of God and the Language of Man: Puritan Semiotics and the Theological and Scientific. *Semiotic Scene*, 2(2), 61-90.
5. HASAN, A. (1999). THE QUR'ĀN: THE PRIMARY SOURCE OF "FIQH." *Islamic Studies*, 38(4), 475–502.
6. Matthews, Z. (2015). A critical analysis of the anthropomorphic and interpretive approaches to Quranic words describing God.
7. Abdelaal, N. M. (2018). Translating connotative meaning in the translation of the Holy Quran: Problems and solutions. *AWEJ for Translation & Literary Studies*, Volume2, (1).
8. Nurhanisah Senin, Khadijah Mohd Khambali @ Hambali, Wan Adli Wan Ramli, Mustafa Kamal Amat Misra (2022) Al-Ghazālī's Approach in Refuting Anthropomorphism. *Islamiyyat: International Journal of Islamic Studies*,
9. As'adi, A. (2011). Criticism and Analysis of the Attribution of Simulism (Tashbih) and Corporealism (Tajsim) to Hisham ibn Hakam. *Naqd Va Nazar*, 16(62), 169-191.
10. Имом Аъзам Абу Ханифа Нўмон ибн Собит. Фикхул Ақбар - Тошкент.: "Мовороунахр", 2007. - 1 б
11. Шайх Мұхаммад Содиқ Мұхаммад Юусуф. Қуръон илмлари – Тошкент.: "Хилол Нашр", 2022. – 504 бет
12. Fatani, Afnan (2006). "Translation and the Qur'an". In Leaman, Oliver (yed.). *The Qur'an: an encyclopaedia*. Great Britain: Routledge. pp. 657–669.
13. Lane-Mercier, G. (1997). Translating the untranslatable: The translator's aesthetic, ideological and political responsibility. *Target. International Journal of Translation Studies*, 9(1), 43-68.
14. Коран / Перевод смыслов и комментарии Порохова В. М. — 12-е изд... — М.: Рипол-классик, 2013.
15. Крачковский И. Ю. Коран/перевод и комментарии ИЮ Крачковского //М.: Издательство восточной литературы. – 1963.
16. Шайх Мұхаммад Содиқ Мұхаммад Юусуф. Қуръон илмлари – Тошкент.: "Хилол Нашр", 2022. – 504 бет
17. Сайид Маҳмуд Тарозий, Олтинхон Тўра. Ал-Қуръон Ал-Карим маъноларининг таржимаси ва шарҳлар. Мадина.: 1895 Мадинаи Мунаввари нашриёти. 860 бет
18. Шайх Мұхаммад Содиқ Мұхаммад Юусуф. Тафсири Хилол. Тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр – Тошкент.: "Хилол Нашр", 2016. – 773 б
19. Slubi, M., Hameed, M., Abdullah, D., & Ali, H. (2022). The Verbal opinions of Badr al-din al-Zarkas'hi (d. 794a. H.) *Anbar university Journal for Islamic Sciences*, 12(50), 297-326.
20. Muhammad, Al-Dzahabi Al-Said Husain. (1976). *Tafsir Wal Mufassirun*. Al-Qahirah, Maktabah Wahbah, tth Maktabah Syamilah, 349, 0099.

21. Musa, S. (2000). The Influence of Tafsir al-Jalalayn on Some Notable Nigerian Mufassirun in the Twentieth-Century Nigeria. *Journal of Muslim Minority Affairs*, 20(2), 323-328.
22. Fatma, G., Pirzada, N., & Begum, S. (2022). Problems, Illusions and Challenges Faced by a non-Arabic Speaker in Understanding Quran: A Sub-Continental Study. *Journal of Positive School Psychology*, 6(2), 5422-5426.
23. Thackston, W. M. (2022). An Introduction to Koranic and Classical Arabic. Iranbooks Press.
24. Sperber, A. D., Devellis, R. F., & Boehlecke, B. (1994). Cross-cultural translation: methodology and validation. *Journal of cross-cultural psychology*, 25(4), 501-524.
25. Noory Nasar Alhas'hmy, U. (2011). Fundamental Criterion to Understand Quranic Text. *Anbar university Journal for Islamic Sciences*, 3(11), 187-218.
26. Arifin, Z. (2015). A Critique Study of Tafseer Inspiration's Method's On Qur'anic Commentary.
27. Kamali, M. H. (1990). The Approved and Disapproved Varieties of Ra'y (Personal Opinion) In Islam. *American Journal of Islam and Society*, 7(1), 39-68.
- حضرت عبد الله بن عباس کا منہج حضرت عبداللہ بن عباس: تفسیر القرآن بالقرآن کے اسلوب کا تحقیقی جائزہ Hazrat Abdullah Ibn Abbas's Methodology of Tafsīr: A Research Review of the Style of Tafsir-ul-Quran bil-Quran. Al-Qamar, 2(1), 497-514.
28. Shahbaz Qadri, M., & ul Arifeen, S. (2019). تفسیر القرآن بالحدیث کے اصول و قواعد کا جائزہ: al-Īqāz. *Tafsīr al-Qur'an bil-Hadīth: A Review of the Principles and Rules of Tafseer al-Qur'an with Hadith*, 27-01..
29. Yousaf, A. R., & Bukhari, S. A. G. (2022). A Review of the Principles and Rules of Tafseer al-Qur'an with Hadith: تفسیر القرآن بالحدیث کے اصول و قواعد کا جائزہ Al-Aijaz Research Journal of Islamic Studies & Humanities, 4(1), 22-39.
30. Qureshi, N., & Chhijan, H. B. (2020). ARBIC-3 Sahaba; their Ijtiihad and School of thoughts in understanding Quranic Text and its academic importance. *Al-Aijaz Research Journal of Islamic Studies & Humanities*, 4(1), 22-39.
31. Ali, A. S. (1996). Al-Tafsir bi al-Ma'thur: The Qur'anic yexegetes of the prophet Muhammad, his companions, and successors. University of Michigan.
32. Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. Тузатилган ва тўлдирилган қайта нашр – Тошкент.: “Ҳилол Нашр”, 2016. 8 – бет.
33. Сайид Маҳмуд Тарозий, Олтинхон Тоъра. Ал-Қуръон Ал-Карим маъноларининг таржимаси ва сҳархлар. Мадина.: 1895 Мадинаи Мунаввари насҳриёти. 860 бет